Bugun tug’ilgan kun! Akademik Djalilov Abdulaxat Turapovich

Toshkent kimyo texnologiyalari ilmiy-tekshirish instituti direktori, O’zR FA akademigi Abdulaxad Djalilov 78 yoshni qarshiladi. A.Djalilov 1942-yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1965-yilda Moskva kimyo-texnologiya institutini tugatgan. 1977-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 2017-yilda O’zR FA akademigi etib saylangan.



Akademik polimerlar kimyosi sohasida “o’z o’zidan polimerlanish” deb nomlangan qonuniyatni ochgan, ayrim vinil monomerlarini to’rtlamchi organik tuzlar ishtirokida alьternant sopolimerlanishini kashf qilgan.

4 ta xorijiy, 300 ta mahalliy patent va 800 dan ortiq ilmiy ish (460 tasi xorijiy nashrlarda) muallifi.

Akademik rahbarligida 10 nafar fan doktori va 65 nafar fan nomzodlari tayyorlangan.

800 dan ortiq yangi kimyoviy moddalarning tuzilishini aniqlab, ularni o’zbek olimlari nomidan xalqaro strukturalar bankiga kiritgan.

Akademik Abdulaxad Turapovichni bugungi tavallud ayyomi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nomidan samimiy muborakbod etamiz. Uzoq yillar sobitqadamlik bilan mamlakatimiz ilm-fani rivojida o’z hissalarini qo’shishda, yoshlarga ilm ziyosini taratishda charchamasliklarini, hamisha yaqinlari va shogirdlari ardog’ida sihat–salomatlikda uzoq umr ko’rishlarini tilab qolamiz!